

INGLIZ ADABIYOTI NAMUNALARIDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI

Muaddat Rivojiddin qizi Temirboyeva

O‘zDJTU talabasi

Mukhammedove N. E

Ilmiy maslahatchi: PhD, dots.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jahon adabiyotida ko‘p uchraydigan badiiy obraz atamasini ingliz adabiyoti misolida tahlil qilinadi. Badiiy obraz atamasi qadimdan barcha xalqlar adabiyotida ma’lum va mashhur. XIX asr ingliz adabiyotining taniqli vakillaridan biri Charlotta Brontening “Jeyn Eyr” (“Jane Eyre” 1867) romanida yozuvchi barcha obrazlarni mohirona tasvirlagan. Ayniqsa, Jeyn obrazi o‘zgacha did bilan tilga olingan.

Kalit so‘zlar: avtobiografik asar, badiiy obraz, mahorat.

THE CONCEPT OF ARTISTIC IMAGE IN EXAPMLE OF ENGLISH LITERATURE

ABSTRACT

In this article, the term artistic image, which is often found in the world literature, is analyzed on the example of English literature. The term artistic image has been known and popular in the literature of all nation since ancient times. In the novel “Jane Eyre “(1867) by Charlotte Bronte, one of the famous representatives of English literature of the 19th century, the writer skillfully described all the characters. Especially the image of Jane is mentioned with special taste.

Keywords: autobiographical work, artistic image, skill

O‘zining asarlarini badiiy obrazlar orqali boyitib, o‘zi yashagan davrni kitobxonlar ko‘z oldida gavdalantira olgan adib va yozuvchilar talaygina. “Obraz” so‘zi slavyan tilidan olingan bo‘lib, bu so‘zning o‘zagi “raz” - chiziq, “razit”- chizmoq, yonmoq va undan “obrazit” - o‘yib, chizib shakl yashamoq so‘zi paydo bo‘lgan. Ana shu “obrazit” so‘zidan “obraz” atamasi vujudga kelgan. Bu so‘z esa “umuman olingan tasvir” ma’nosini bildiradi.[L.Tashmuxammedov., D. Quranov.,]³. Adabiyot va san’atda obraz deyilganda inson nazarda tutilar ekan, demak, u ijodkorning maqsad,

³ L. Tashmuxammedov "Adabiyot tarixi va nazariyasi"(Toshkent 2020)

muddaosini ifoda etuvchi kishi tasviri bo'ldi. Ingliz adabiyotida Opa-singil Brontelar, Charles Dickens, Jorj Eliot, Elizabet Gaskell, V.Tekkerey kabi yozuvchilar asarlarida obrazlar mohirona tasvirlangan.

XIX asrning ko'zga ko'ringan yozuvchilaridan biri bu Sharlotta Brontedir. Sharlotta Brontening ijodi ayollarning qiyofasiga bo'lgan munosabati tufayli o'z davridagi adabiyotda tub burilish yasadi. U o'z avtobiografiyasidan foydalanib Jeyn Eyr romani asosida o'quvchi yoshlarni XIX asr ayollari haqiqatiga jalb qilishi mumkin. Shu sababli Bronte birinchi feministik romantik roman mualliflaridan biri hisoblanadi, chunki uning asarlarida ayollar o'zlarini ehtirosli va ijtimoiy ehtiyojlarga ega bo'lgan mavjudotlar sifatida namoyish etadilar, ular hozirgi konvensiyalar qabul qilinadigan narsalarga mutlaqo mos kelmaydi. Uning "Shirley - Shirli" (1849), "Villette-Shaharcha"(1857), "Professor-Professor" (1857) kabi asarlari orqali ma'lum va mashhur. U deyarli barcha asarlarida o'z hikoyalarini aytib berish uchun o'z tajribalarining bir qismidan foydalangan, lekin ayniqsa "Jane Eyre – Jeyn Eyr" (1847) asarda Getsheyd uyida kechgan xotiralar o'z ifodasini topgan. Bryusselda bo'lganida, u mavzular uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Viktoriyan davrida ayollar huquqlarini o'z asarlari orqali ifoda qilgan. Ayollarni ijtimoiy va ehtirosli ehtiyojlarga ega loyiq shaxs sifatida ko'rsatgan.

Asar 10 yoshli Jeyn ismli qizning boshidan kechirgan voqealar bilan boshlanadi. Uning ota - onadan ayrilib, o'z amakisi janob Rid (Reed) bilan yashab ham huzur halovat topmaganiga guvoh bo'lamiz. Har bitta qilgan oddiy aybi uchun ham doimiy jazolar uning bolalarcha dunyosini vayron qilardi. Birgina suyanchi hisoblangan amakisining o'limidan keyin esa xolasi Rid xonim Jeynni qizlar maktabiga jo'natadi. Lovud maktabi (Lowood school) direktori Broklhart (Mr Brocklehurst) ham Jeynni ko'rishga ko'zi yo'q bo'lgan Rid xonimning tanishi edi. Shuning uchun maktabda ham erkin o'qib bilim ololmaydi. Oxir oqibat ana shu maktabni tugatib, o'sha yerda o'qituvchi bo'lib qoladi. Boshiga tushgan yomon kunlarni sabr va matonat bilan yengib o'tadi.

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi.⁴ Asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga ko'ra obrazlar bosh va epizodik turlarga bo'linadi.

Jeyn Eyrni haqiqiy hayot qozonida qaynab, barcha qiyinchiliklarga tik qaray olishi va juda ham sabrli, tirishqoq, aqlli, bolalik dunyosi parchalanishiga qaramay kelajakka ishongan qiz obrazi timsolida shakllanishi uchun o'z hissasini qo'shgan asar qahramonlarini asosan ularni qayerda uchratganiga asoslanib, uchta guruhga ajratish

⁴ To'xta Boboyev " Adabiyotshunoslik asoslari" (Toshkent- O'zbekiston 2002)

mumkin. Birinchi navbatda janob Ridning(Mr Reed) xonadoni va u yerdagi Jeynning qarindoshlari: janob Rid(Mr Reed), Rid xonim (Mrs Reed), ularning erkatoiy va arzanda farzandlari Eliza, Jon (John) ,Gorgina (Georgiana) kabi asar qahramonlari Jeynning hayotida o‘chmas iz qoldirgan. Chunki Rid xonim bolalari biror narsa uchun tortishib qolishsa ham, unda Jeynni ayblar va jazolar edi.

Keyingi navbatda, Lovud maktabi (Lowood) Jeynning kelgusi hayotida o‘zining ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Maktab direktori janob Broklhart (Mr Brocklehurst) juda ham jahldor, ko‘rinishidan qo‘rqinchli inson edi. U o‘quvchilarni arzimmas xatosi uchun jazolardi va ushbu maktabda keyinchalik Jeynning o‘zi ham o‘qituvchilik faoliyatini boshlashi uchun turtki bo‘lgan mehribon, oqko‘ngil, Jeyn uchun sevimli hisoblangan lekin maktabning boshqaruv tizimiga aralasha olmaydigan Templ xonim (Mrs Temple) ham maktab o‘qituvchilaridan biri bo‘lgan.

Jeynning hayotidagi eng muhim maskanlardan yana biri bu Sornfild va ushbu xonadonda yashovchi insonlardir.(Thornfield). Ushbu uy sohibi janob Rochester (Mr Rochester) oilaviy hayoti o‘zi kutganidek bo‘lmagan, shuning uchun o‘z uyiga kelishni ham istamaydigan, lekin juda ham oliyjanob, mehnatkash, ishbilarmon kishi edi. Feyrfeks xonim (Mrs Fairfax oddiy uy xizmatchisi bo‘lishiga qaramay, oddiy, kichik ko‘ngil, insonlarni dardini eshitish bilan birga, ularni his qila oladigan ajoyib ayol edi.

Asarda yuqorida sanab o‘tilgan asar qahramonlaridan tashqari yana ko‘plab bosh va epizodik obrazlar mavjud. Epizodik obraz-asarning makrostrukturasida kamroq ishtirok etadigan va asosiy qahramon tabiatidagi muhim xususiyatlarni ishonarli yoritilishiga yordam beradigan personajdir.⁵ Ularga Eliza- faqat o‘zini o‘ylaydigan, qo‘pol, Jeynni yoqtirmaydigan obraz, Adeli (Adele)- yosh, quvnoq va xushchaqchaq qizaloq va Berta Mason- (Bertha Mason) - aqldan ozgan, turmushi o‘xshamagan va hammadan alamzada ayol kabi obrazlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Yozuvchining boshqa asarlarida bo‘lgani kabi Jeyn Eyrda ham o‘z hayotidan olingan ko‘plab tavsilotlar va vaziyatlar mavjud. Xususan, Jeynni Lovud xayriya qizlar maktabida o‘qishi Sharlottaning o‘zi o‘qigan Kauren ko‘prigi bilan juda ko‘p o‘xshashliklarga ega. Jeynning do‘sti Ellen Berns obrazi esa katta opa-singillarning xotiralariga asoslangan. Yozuvchi obrazlarning hayotini shu qadar mahorat bilan tasvirlagani uchun ham kitobxonlar ularning boshdan kechirgan har bir holatini his qila oladi.

⁵ D. Quranov " Adabiyotshunoslikka kirish (Toshkent- 2004)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Tashmuxammedov L., Adabiyot tarixi va nazariyasi. Toshkent: - 2020. -150 b.
2. Boboyev T., Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.2002. – 160B.
3. Gregory C. The Blackwell Guide to Literature Theory. Blackwell: Blackwell Publishing Ltd, 2007, - 240p.
4. Quranov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T:Fan. 2007, -120 B.